

O'zbekiston Prezidenti Sianga keldi




O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan birga davlat tashrifi bilan Xitoy Xalq Respublikasiga keldi.

Ko'hna Sian shahrining xalqaro aeroportida ikki davlat bayroqlari ko'tarildi, oliy martabali mehmonlar sharafiga faxriy qorovul saf tortdi, milliy qo'shiq va raqslardan iborat tantanali marosim bo'lib o'tdi.

O'zbekiston yetakchisini XXR madaniyat va turizm vaziri Xu Xepin, Shensi muzofoti gubernatori Chjao Gan va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, davlatimiz rahbari 18-may kuni XXR Raisi Si Szinpin bilan muzokara o'tkazadi.

19-may kuni O'zbekiston Prezidenti "Markaziy Osiyo - Xitoy" birinchi sammitida ishtirok etadi.



Manba